

**SURXONDARYO VILOYATI O'RMON XO'JALIGI FONDI YERLARIDA DORIVOR
VALERIANA. VALERIANA OFFICINALIS L. O'SIMLIGINI INNOVATSION
YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI VA KO'CHATLARNI YETKAZIB BERISH**

Turakulov Alimardon Abdusalomovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,

Iqtisodiyot, o'rmonchilik va veterinariya fakulteti dekani.

Mamayusupova Laylo G'ulom qizi

laylomamayusupova81@gmail.com

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,

“O'rmonchilik, Dorivor o'simliklar, Manzarali bog'dorchilik” kafedrası

O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15190795>

Annotatsiya. *Dorivor valeriana o'simligida olingan dori vositalari tabobatda yurak va qon-tomir kasalliklarini oldini olish hamda davolashda, ayniqsa asab sistemasini tinchlantirishda keng miqyosda ishlatiladi. Hududning iqlim sharoitida yuqori hosildorlikka Valeriana officinalis L. o'simligini innovatsion yetishtirish agrotexnologiyasi va ko'chatlarni yetkazib berish. Hududning iqlim sharoitida yuqori hosildorlikka Valeriana officinalis L. o'simligini innovatsion yetishtirish agrotexnologiyasi va ko'chatlarni yetkazib berish.*

Kalit so'zlar: Olitoriya Valeriana, efir moylari, valerin, chumoli kislotalar, pitomnik, qator oralab ekish, farmaseftika, yalpi gullash, ammiakli selitra, o'rish yo'li, plantatsiya.

**MEDICINAL VALERIAN ON THE LANDS OF THE SURKHANDARYA REGION
FORESTRY FUND. INNOVATIVE AGROTECHNOLOGY OF CULTIVATION OF
VALERIANA OFFICINALIS L. AND SUPPLY OF SEEDLINGS**

Abstract. *Medicinal products obtained from the medicinal valerian plant are widely used in medicine for the prevention and treatment of heart and blood vessel diseases, especially for calming the nervous system. Innovative agrotechnology of cultivation of Valeriana officinalis L. for high yield in the climatic conditions of the region and supply of seedlings. Innovative agrotechnology of cultivation of Valeriana officinalis L. for high yield in the climatic conditions of the region and supply of seedlings.*

Keywords: *Olitoria Valeriana, essential oils, valerian, formic acids, nursery, row cropping, pharmaceuticals, mass flowering, ammonium nitrate, mowing path, plantation.*

**ВАЛЕРИАНА ЛЕКАРСТВЕННАЯ НА ЗЕМЛЯХ ЛЕСНОГО ФОНДА
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ. ИННОВАЦИОННАЯ АГРОТЕХНОЛОГИЯ
ВЫРАЩИВАНИЯ РАСТЕНИЙ ВАЛЕРИАНЫ ЛЕКАРСТВЕННОЙ И ПОСТАВКА
САЖЕНЦЕВ**

Аннотация. Лекарственные средства, получаемые из лекарственного растения валерианы, широко применяются в медицине для профилактики и лечения заболеваний сердца и сосудов, особенно для успокоения нервной системы. Инновационная агротехнология выращивания Валерианы лекарственной для получения высоких урожаев в климатических условиях региона и поставки рассады. Инновационная агротехнология выращивания Валерианы лекарственной для получения высоких урожаев в климатических условиях региона и поставки рассады.

Ключевые слова: Olitoria Valeriana, эфирные масла, валериана, муравьиные кислоты, питомник, пропашные культуры, фармацевтика, массовое цветение, аммиачная селитра, сенокосная дорожка, плантация.

Kirish: Valeriana (Valeriana L.) - maunazorundoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't, yarim buta, buta va lionlar turkumi. Barglari butun, uch bo'lakli yoki patsimon qirqilgan.

To'pguli gullaganida boshchasimon, mevasi yetilganida ro'vaksimon bo'ladi. Gullari mayda. 200 ga yaqin turi Shimoliy yarim sharning mu'tadil va sovuq iqlimli hududlarida, Janubiy, Amerikada, 1 turi Kilimanjaro tog'larida tarqalgan. Andda ayniqsa xilma-xil turlari uchraydi. Hamma yerda — nam joylardan tortib tog'u-toshlar, hatto alp yaylovlari mintaqalarida o'sadi. Dorivor Valeriana. (Valeriana. officinalis L.) — o't o'simlik, poyasi tik, bo'yi 2 m gacha, barglari va ildiz mevasining katta-kichikligi bilan farq qiladigan bir necha kenja turlar hosil qiladi, dorivor o'simlik sifatida ekiladi. Dorivor Valeriana.ning ildizi va ildizpoyasidan tibbiyotda foydalaniladi. Undan nerv sistemasiga ta'sir qiluvchi, yurak urishini tartibga soluvchi valerian tomchisi olinadi. Valeriana. tarkibida efir moylari, valerin, sirka va chumoli kislotalar, turli alkaloidlar bor. Olitoriya Valerianasi barglari sho'raki (salat) sifatida iste'mol qilinadi. O'zbekistonda tog'lik mintaqalarda asorun (Valeriana. fi carifolia Boiss.) tarqalgan.

Mahalliy o'rmon va fermer xo'jaliklari uchun ko'chat yetkazib berish. Ichki va tashqi bozorlar uchun eksportbopmaxsulotlar olish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishga va farmaseftika sanoati uchun xomashyo yetkazib berishni yo'lga qo'yish. Dorivor Valeriana (Valeriana officinalis L) o'simligi - Valerianalar turkumiga mansub bo'lib, tabobatda ildizpoyasi va ildizlari ishlatiladigan o'simlik Ildizpoyadan birinchi yili ildizoldi to'pbarglar, ikkinchi yilidan boshlab poya o'sib chiqadi. Poyasi tik o'suvchi 1.5-2.0 metrgacha yetadi. Bargi oddiy, toq patli ajralgan, 4-11 juft sigmentlar (bo'lakchalar)dan iborat.

Dorivor Valeriana. (Valeriana. officinalis L.) — tabobatda yurak va qon-tomir kasalliklarini oldini olish hamda davolashda, ayniqsa asab sistemasini tinchlantirishda dorivor o'simliklar va ulardan olinadigan dori vositalari keng miqyosda ishlatiladi. Dorivor valeriana ana shunday dorivor o'simliklar sarasiga kiradi. Viloyatimizning Bobotog' va Hisor tog'larida mazkur

dorivor o'simlikning yetishtirish mumkinligi isbotladik.. Hozirgi vaqtda respublikamizning ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaliklarida o'ndan ortiq dorivor o'simliklar ziroat qilinmoqda, valeriana shular jumlasidandir.

Umuman olganda, farmatsevtika sanoati korxonalari ehtiyojlarini dorivor o'simliklar xomashyosi bilan to'la-to'kis, uzliksiz ta'minlash, hamda dorivor o'simliklar homashyo bazasini yaratish uchun ularni ekib o'stirish, hamda ularning ekin maydonlarini kengaytirib, dorivor o'simliklar dehqonchiligini respublikamizda rivojlantirish, qishloq xo'jaligimiz fanlari oldidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.



Qator oralab ekish. Dorivor valeriana unib chiqishi. Dorivor valeriana o'simligi ko'chati

Agrotexnika tadbirlari:

Urug' erta bahorda ekiladi, bunda tuproqni tayyorlab ekishning kechikishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Kuzda, noyabr oxirlarida, urug'ning unishiga monelik qiladigan barqaror sovuq tushishi oldidan ekiladi. Asosiy shudgor noyabr oyida 30 sm chuqurlikda o'tqaziladi.

Ekishdan oldin uruqqa ishlov berishning hojati yo'q. gektariga 8 kg sarfladik. Urug' 1-1,5 sm chuqurlikka ekiladi. 3-4 ta barg chiqqanidan keyin 45-60 sm masofada egat olinadi.

O'simlik o'sishi va rivojlanishi davrida 1-2 marta o'toq qilinadi, yer 4-5 marta yumshatib 9-10 marta sug'ordik. (aprel-1, may-2, iyun-iyul-2-3, avgust-sentyabr-2). Tuproq tarkibi va yerning begona o't bosganlik darajasiga 15 41–kitob Dorivor o'simliklarni o'stirish va yetishtirish bog'liq ravishda har ikki marta sug'orilganidan keyin yer yumshatirilib may oyida gektar hisobiga 60-70 kg dan ammiakli selitra soldik. Ikkinchi yili ekin maydonlarida yerni yumshatish barobarida bahorgi qo'shimcha ozuqa beriladi, bunda ayniqsa guldor poyani yo'qotishga e'tibor berish kerak. Bu tadbir yalpi gullash davrida o'simlik yer ustki qismini 10-15 sm balandlikda o'roq mashinada o'rish yo'li bilan amalga oshirildi. Hosil oktabr oyida yig'ib olib, zero ildizlarning o'sishi butun kuz mobaynida davom etaveradi. Ildizlar barabanli yoki lappakli yuvuvchi mashinalarda yaxshilab yuvib, keyin yaxshi shamollatib turiladigan xonalardagi maxsus javonlarga 15-20 sm qalinlikda yoyib qo'yiladi va panshaxada vaqti-vaqti bilan almashtirib turiladi. Hom ashyoning barchasi xirmonga yig'ib, qirqilgan ildizlar esa qoplarga joyladik.

Xulosa: Valerianani urug‘dan tashqari ko‘chatlari orqali ham ko‘paytirish mumkin.

Buning uchun maxsus niholxona (pitomnik) tashkil qilinib ko‘chatlar yetishtirib yetilgan niholchalar ochiq yerga ko‘chirilib o‘tkazdik. O‘tqazilgan har bir nihol oralig‘i 10-12 sm bo‘lishligi va zudlik bilan sug‘ordik. Valerianani ildizlari vegetatsiyani ikkinchi yilining ohirida, o‘simlik urug‘lari pishib yetilgandan so‘ng kovlab oldik. Har bir gektar maydondan 10-15 sentnerdan quruq holda ildiz kovlab olib, yig‘ib olingan mahsulot tuproqdan tozalanib, mahsus idish yoki savatlarga solib suvda yuvib, keyin quritdik.

Mahalliy o‘rmon va fermer xo‘jaliklari uchun fabrikalarga yubordik. Maqsad ichki va tashqi bozorlar uchun eksportbop maxsulotlar olish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etishga va farmaseftika sanoati uchun xomashyo yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish iborat.

REFERENCES

1. O‘zMU Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. “Valeriana” o‘simlik ro‘yhati (1,1-versiya) olingan 2014.09.19;
3. Dorivor o‘simliklar va ulardan foydalanish. R.X.Ayupov Toshkent 2015.
4. F.Rasulova, G‘afirova, Xoliqov Baxodir Melikovich //Dorivor o‘simliklarni yetishtirishda ilmiy-tadqiqot uslublari// o‘quv qo‘llanma. –T.: «Fan ziyosi» nashriyoti 2021.
5. “Shifobaxsh” ilmiy-ishlab chiqarish markazi Agro.uz
6. Kazoqboyev.N va Uralov.A (2022). Dorivor Valeriana- valeriana officinalis ning dorivorlik xususiyatlari.